

## TADBIRKORLIK SUBYEKLARI FAOLIYATINI BARQARORLIK REYTINGI ASOSIDA RIVOJLANТИRISH ISTIQBOLLARI

*PhD, dots. Salimov Sherzod Baxtiyorovich*  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
ORCID: 0000-0002-6131-7074  
[sherzodsalimovb@gmail.com](mailto:sherzodsalimovb@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif davlat biznes faoliyatini boshqarish va tartibga solish uchun soliqlardan qanday foydalanishini hamda "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi"ni biznes muhitining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz. Soliqlar orqali tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish mechanizmlarini tushunish soliq siyosatining iqtisodiy rivojlanish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashdagi ahamiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, barqarorlik reytingi, JShDS, foyda solig'i, QQS, mezon, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'rni, ish haqi progressiv, proportional, budget, to'lov, Soliq kodeksi, tendentsiya.

## ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА НА ОСНОВЕ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

*PhD, доц. Салимов Шерзод Бахтиёрович*  
Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В этой статье мы рассмотрим, как государство использует налоги для управления и регулирования деловой активности, а также как "рейтинг устойчивости хозяйствующих субъектов" влияет на различные аспекты деловой среды. Понимание механизмов регулирования предпринимательской деятельности посредством налогов поможет лучше понять значение налоговой политики в развитии экономики и улучшении делового климата.

**Ключевые слова:** предпринимательство, рейтинг устойчивости, НДФЛ, налог на прибыль, НДС, критерий, норма прибыли, платежная дисциплина, роль в занятости населения, заработка плата прогрессивная, пропорциональная, бюджетная, платежная, Налоговый кодекс, тенденция.

## PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES BASED ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT RATING

*PhD, assoc. prof. Salimov Sherzod Bakhtiyorovich*  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** In this article, we will look at how the state uses taxes to manage and regulate business activity, as well as how the "sustainability rating of business entities" affects various aspects of the business environment. Understanding the mechanisms of business regulation through taxes will help to better understand the importance of tax policy in economic development and improving the business climate.

**Keywords:** entrepreneurship, sustainability rating, income tax, VAT, criterion, profit margin, payment discipline, role in employment, progressive wages, proportional, budgetary, payment, Tax code, trend.

### Kirish.

Hozirgi davrda zamonaviy iqtisodiyotda davlat ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun davlat tomonidan ishlataladigan asosiy vositalardan biri bu soliq siyosati orqali amalga oshiriladi. Soliqlar orqali tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish davlatning iqtisodiyotga ta'sirining samarali usuli hisoblanadi. Soliq stavkalari va imtiyozlar davlat soliq stavkalarini o'zgartirish orqali tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishi mumkin. Soliq stavkalarini oshirish yoki pasaytirish har xil turdag'i korxonalarning rentabelligiga ta'sir qilishi, ularning rivojlanishini rag'batlantirishi yoki cheklashi mumkin. Bundan tashqari, ayrim faoliyat turlari yoki muayyan sohalarga sarmoya kiritadigan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlarini berish ushbu tarmoqlarning rivojlanishini rag'batlantirishi va investitsiyalarni jalb qilishi mumkin.

Barqarorlik reytingini joriy qilish ahamiyati haqida davlat rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida aytildi. Shundan so'ng uning mezonlari va tartib-tamoyillari ishlab chiqildi. Reyting tadbirkorlar faoliyati uchun "o'ziga xos rag'bat" bo'lishi qayd etilgan.

«Tadbirkorlar sinfi jamiyatda yetakchi kuchga aylanmoqda, yoshlar ularga qarab intilmoqda. Endi ushbu reyting orqali tadbirkorlar o'rtaida qonunlarga itoat qilish, intizomli va harakatchan bo'lismi rag'batlantirish zarur. Buni joriy qilish va samaradorligini ta'minlashda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat kengashining o'rni katta bo'lishi kerak» (Mirziyoyev, 2024).

2024 yil 1 fevraldan boshlab tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi joriy etiladi. Reytingi yuqori bo'lgan tadbirkorlar qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'ladilar (Qaror, 2024).

### Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlar reytingi borasida tadqiqot olib borgan va o'z asarlarida o'z fikrlarini bildirgan olimlar ko'p. Olimalarning ba'zilarini bildirgan fikrlarini ko'rib chiqamiz:

Robert Solow (1988) o'zining "Growth Theory: An Exposition" (o'sish nazariyasi: ekspozitsiya) asarida iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarini tadbirkorlarning roli va ularning barqarorligini bo'yicha o'rganadi.

Uilyam Baumol (1996) tadbirkorlik nazariyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida Baumol tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalar uchun ahamiyatiga e'tibor qaratadi.

Jeffrey Timmons (1989) "Barqaror tadbirkorlik" kontseptsiyasining muallifi bo'lib, biznesning muvaffaqiyati tadbirkorning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish va to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatiga bog'liq deb hisoblaydi.

Toivonen, Korhonen, & Jussila, (2019) "Barqarorlik va tadbirkorlik: bibliometrik sharh va tadqiqot kun tartibi." maqolasida barqaror tadbirkorlik sohasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladi va keyingi tadqiqotlar uchun tadqiqot dasturini taklif qiladi.

Kuckertz & Wagner (2010) "Barqaror tadbirkorlik ko'rsatkichlarining tizimli adabiyot sharhi" asarida barqaror tadbirkorlik ko'rsatkichlari va uning samaradorligini baholash bo'yicha adabiyotlarni tizimli ko'rib chiqishni taqdim etadi.


Kraus, Clauss, Breier, Gast, Zardini, Tiberius & Brem (2019) "Tadbirkorlik yo'nalishi va barqaror rivojlanish: konfiguratsiya yondashuvi" maqolasida tadbirkorlik yo'nalishi va barqarorlik o'rtaida bog'liqlikni ya'ni baholash va o'lchash masalalarini ko'rib chiqishgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini barqarorlik reytingi asosida rivojlantirish istiqbollarini mamlakatlarning iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini aniqlash uchun qiyosiy tahlil va matematik modellashtirish usullaridan foydalilanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingiga ko'ra, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'rni va ish haqi kabi 23ta mezon asosida 4ta toifaga ajratiladi. Barqarorlik reytingi soliq, adliya va sud organlari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o'z o'rni va bahosini real vaqtida bilib borishi mumkin bo'ladi. Reyting natijalari Savdo-sanoat palatasi saytida e'lon qilinadi.



1-rasm. Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi ko'rsatkichlari<sup>63</sup>

Reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor bo'ladi, QQS summasi bir kunda va boshqa soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lov uch kunda qaytarib beriladi. Tovarlarni import qilishda va sotishda QQSni bojxona va soliq organlarida o'zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

Auksionda olingan davlat aktivlari va yer uchastkalari qiymatini bo'lib to'lash muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytiriladi. Bunda kamida 15% miqdorida dastlabki to'lojni biryo'la amalga oshirganda, qolgan summaga yillik foizlar hisoblanmaydi.

### 1-jadval

#### Reyting natijalariga ko'ra tadbirkorlarning toifalarga bo'linishi<sup>64</sup>

YUQORI BARQARORLIK REYTINGI	
<b>AAA</b>	<b>100-96 ball</b>
<b>AA</b>	<b>95-91 ball</b>
<b>A</b>	<b>90-86 ball</b>
O'RTACHA BARQARORLIK REYTINGI	
<b>BBB</b>	<b>85-76 ball</b>
<b>BB</b>	<b>75-66 ball</b>
<b>B</b>	<b>65-56 ball</b>
QONIQARLI BARQARORLIK REYTINGI	
<b>CCC</b>	<b>55-51 ball</b>
<b>CC</b>	<b>50-36 ball</b>
<b>C</b>	<b>35-26 ball</b>
QUYI (PAST) BARQARORLIK REYTINGI	
<b>D</b>	<b>25 ballgacha</b>

<sup>63</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>64</sup> Muallif ishlanmasi

Reyting natijasida tadbirkorlar faoliyatiga soliqchilar emas, elektron tizim baho beradi. Kelgusida subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar reytingdan kelib chiqib beriladi. Ko'rsatkichi past bo'lganlar intizomli tadbirkorlar safiga kirish va ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun harakat qiladi.

Reyting avtomatik ravishda (onlayn) Soliq qo'mitasining «Tabdirkorlarning barqarorlik reytingi» elektron platformasida shakllantiriladi. Baholash tadbirkorlik sub'ektining qonunchilik talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu ma'lumot idoralararo ma'lumotlar almashinuvni orqali platformaga kelib tushadi. Reytingni yuritish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir haftalik muddat ichida belgilanadi.

Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari «AA» toifasidan yuqori bo'lмаган baho olishlari mumkin. Reyting natijalari har kuni tadbirkorning shaxsiy kabinetiga va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytiga joylashtirib boriladi. Tadbirkorga past bahoning sabablari va uni qanday yaxshilash haqida ma'lumot beriladi.

Tadbirkor Soliq qo'mitasiga murojaat qilib, baho ustidan shikoyat qilishi mumkin. Arizalar 1 kun ichida ko'rib chiqiladi. Reytingi yuqori tadbirkorlar rag'batlantiriladi. Bunda reytingi past tashkilotlar uchun jarimalar nazarda tutilmagan.

**AAA** "AAA" reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (qo'zg'atilgan jinoi ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar mustasno), shuningdek ushbu sub'ektlarga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

**AA** "AA" va undan yuqori reytingga ega bo'lganlarda:  
4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari bo'yicha kamida 15 foiz miqdoridagi dastlabki to'lov bir yo'la amalga oshirilganda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati 5 yilgacha uzaytiriladi.

**A** "A" va undan yuqori reytingga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektilariga:  
barcha soliq turlari bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi;  
tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish imkoniyatini beruvchi tartib tatbiq etiladi.  
*Misol uchun, 2023 yilning 4-choragining o'zida "A" va undan yuqori reytingga ega bo'lgan 9361 ta korxonadan 1201 tasini 356,4 mlrd so'm hisobga olinishi mumkin bo'lgan ortiqcha to'lovi mavjud bo'lgan.*

## 2-rasm. Barqarorlik reytingidagi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagi rag'batlantirish choralarini joriy etiladi<sup>65</sup>

Eng yuqori bahoni olgan va «AAA» toifasiga kiritilgan tadbirkorlar:

- soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi (jinoi ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno);

• QQS summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kunda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi.

4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifaga kiritilgan, bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan davlat aktivlari va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini sotib olgan va kamida 15 foiz miqdorida dastlabki to'lovni bir yo'la amalga oshirgan tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan:

- qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanishidan ozod qilish;

• bo'lib-bo'lib to'lash muddatini 5 yilgacha uzaytirish huquqini berish ko'zda tutilgan.

«A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga:

- soliqlar bo'yicha (QQS bundan mustasno) ortiqcha to'lov summasini 3 kunlik muddatda qaytarishadi;

<sup>65</sup> Muallif ishlanmasi

• tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan QQS summalarini o'zaro hisobga olish tartibini qo'llash huquqi beriladi. Ushbu imtiyozlar ustav kapitalida davlat ulushi 50% va undan ko'proqni tashkil qiladigan davlat korxonalari hamda yuridik shaslarga nisbatan tadbiq qilinmaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi<sup>[2]</sup> qarorga asosan Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son qarori qabul qilindi. Bunda, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash 3 xil ko'rsatkichga bo'linib, 23 ta baholash mezoni tasdiqlandi:

- umumiy ko'rsatkichlar;
- ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar;
- qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar.

## 2-jadval

### Umumiy mezonlar<sup>66</sup>

	Mezon	Ballar
1	Kompaniya ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab ishlash muddati (bekor turib qolish vaqtiga hisobga olinmaydi)	Har bir yil uchun 2 ball (5 yil va undan ko'proq - 10 ball)
2	EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi (foizlar, soliqlar, eskirish va amortizatsiya chegirmasidan oldingi foyda), hisobot xalqaro standartlar bo'yicha hisobga olinadi	25-50 % - plus 2; 50-70 % - plus 5; 70 % dan ko'proq - plus 10
3	Ko'chmas mulk ob'ektlari yoki yer uchastkalarining mavjudligi, foydalaniладigan yer uchastkalari (shu jumladan uzoq muddatli ijaradagi qishloq xo'jaligi yerlari), shuningdek mulk huquqi yoki ijara huquqidagi ko'chmas mulk	ijarada - plus 7; mulkida - plus 10. agar mavjud bo'lmasa, shuningdek tadbirkor ko'rsatilgan manzilda harakat qilmasa - minus 5
4	Bitta xodimning mehnatga haq to'lash jamg'armasidagi ulushning soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichiga nisbati	kamida 25 % - plus 2; 25-50 % - plus 4; 50-75 % - plus 6; 75-99 % - plus 8; 100 % va ko'proq - plus 10, agar ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdordan kam bo'lsa, u holda - minus 5 ball
5	Soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim qilish	O'z vaqtida - plus 10; agar kechikish bilan yoki umuman taqdim qilinmasa - plus 0
6	Hisoblangan soliqlarni o'z vaqtida to'lash (har bir oy kesimida)	O'z vaqtida - plus 10; agar kechikish bilan yoki umuman to'lanmasa - 0
7	To'lov yoki inkasso topshiriqnomasi asosida hisoblangan soliqlarni to'lash	plus 10 (agar inkasso orqali bo'lsa, unda reyting 5 ballaga kamayadi)
8	Belgilangan muddatlarda (summaning EHF aylanmasiga nisbati) tovarlarni yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish uchun elektron hisobvaraq-fakturani (EHF) rasmiylashtirish	kamida 25 % - plus 1; 25-50 % - plus 2; 50-75 % - plus 5; 75-99 % - plus 7; 100 % - plus 10
9	O'sha yili EHF bo'yicha sotib olingan tovarlar yoki xom ashynoni (shu jumladan import qilinganlarni) realizatsiya qilish (eksport qilish); tovarlar va xom ashynoni sotib olish va sotish nisbati	50-70 % - plus 5; 70 % dan ko'proq - plus 10; agar sotib olingan tovar va xom ashylarning 70 %i qoldiqda saqlansa, u holda minus 5
10	Soliq organlarining avvaldan tekshirish tahlili paytida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish	Xatolarni ixtiyoriy tarzda bartaraf etish - plus 7; kamchiliklar yo'q - plus 10; tuzatilmagan yoki kamchiliklar haqida izoh yo'q - minus 5

<sup>66</sup> Muallif ishlanmasi

Umumiy ko'rsatkichlar o'z ichiga 10 ta mezonni oladi va bunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan maksimal 100 ball olinadi, shuningdek, umumiy ko'rsatkichlarga quyidagi mezonlar kiradi:

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi;
- EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi;

Ma'lumot uchun: EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi tadbirkorlik subyektining sof foydasiga foiz to'lovlar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, hisoblangan foyda solig'i summasi qo'shilib, tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan sof tushumga bo'lish va 100ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

- yer uchastkalari va (yoki) ko'chmas mulk obyektlari mavjudligi;
- bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasi;
- soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi;
- hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi;
- hisoblangan soliqlarning to'lov topshiriqnomasi orqali to'langanligi;
- elektron hisobvaraq-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holati;
- elektron hisobvaraq-fakturalar orqali xarid qilingan tovarlar realizatsiyasi;
- soliq organlari tekshiruvidan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati.

### 3-jadval

#### Pasaytiruvchi mezonlar<sup>67</sup>

	Mezon	Ballar
1	Oxirgi 12 oy ichida kompaniyaning ish joyini (pochta manzilini) uch yoki undan ko'p marta o'zgartirish	minus 5
2	So'nggi 12 oy ichida kompaniya rahbarining uch yoki undan ko'p marta almashishi	minus 5
3	So'nggi 3 yil ichida kompaniya rahbari yoki ta'sischisining sudlanganligi yoki bankrotligi	minus 5
4	Ilgari taqdim qilingan soliq hisobotiga tuzatish kiritish	Tuzatish uchun minus 1 ball (maksimum 5)
5	QQS to'lovchisi guvohnomasining to'xtatilishi yoki bekor qilinishi	minus 10
6	Mol-mulk hisobiga soliq qarzdorligini undirish (jarima to'lov qilingandan keyin yechiladi)	minus 5
7	Soliqlar bilan bog'liq qonunbuzilishlar uchun javobgarlikka tortish	ma'muriy – minus 2; jinoiy – minus 5
8	MXIKdan noto'g'ri foydalanish (oyiga kamida 2 marta)	minus 5
9	Kreditorlik qarzlarini undirish bo'yicha sud jarayoni (12 oy ichida ikki yoki undan ortiq marta)	minus 10

Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar o'z ichiga 9 ta mezonni oladi va bunda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan maksimal 55 ball chegiriladi. Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar quyidagilar kiradi:

- joylashgan joy (pochta manzili) o'zgarishi ko'rsatkichi;
- tadbirkorlik subyekti rahbarining qo'nimsizligi;
- tadbirkorlik subyekti ta'sischisi yoki rahbarining ishonchsizligi ko'rsatkichi;
- taqdim etilgan soliq hisobotlariga soliq to'lovchining o'zi tomonidan mustaqil tuzatishlar kiritilishi ko'rsatkichi;
- qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisining maxsus guvohnomasi holatini baholash ko'rsatkichi;
- soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirish ko'rsatkichi;

<sup>67</sup> Muallif ishlanmasi

- soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari qo'llanilganligi ko'rsatkichi;
  - mahsulotlar (tovar va xizmatlar) identifikasiya kodlaridan noto'g'ri foydalanish holatini baholash ko'rsatkichi;
  - tadbirkorlik subyektlarining kreditorlik qarzdorligi mavjudligi ko'rsatkichi.
- Qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar o'z ichiga 4 ta rag'batlantiruvchi mezonni oladi hamda ushbu mezonlar asosida tadbirkorlik subyektlari tomonidan qo'shimcha yana 45 ball olish imkoniyati beriladi. Ushbu mezonlarga quyidagilar kiradi:
- ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlash ko'rsatkichi;
  - mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi to'lanayotgan xodimlar sonining ortishi ko'rsatkichi;
  - qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli sohaga oid o'rtacha ko'rsatkichi;
  - aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisoblangan soliq summasining tegishli sohaga oid o'rtacha ko'rsatkichi.

#### 4-jadval

#### Rag'batlantiruvchi mezonlar<sup>68</sup>

	Mezon	Ballar
1	Xodimlar orasida ehtiyojmand shaxslar ulushi (Ijtimoiy himoya yagona reestrida, «temir», «ayollar», «yoshlar» daftarlari), shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar	10–20 % – plus 5; 20 % dan ko'proq – plus 10
2	MHTEKMdan yuqori ish haqi oladigan xodimlar sonining yillik o'sishi (yangi kompaniyalar uchun o'sish sur'ati o'tgan oyga nisbatan ikkinchi oydan hisoblanadi)	1–10 % – plus 2; 10–20 % – plus 4; 20–30 % – plus 6; 30–40 % – plus 8; 40–50% – plus 10; 50%dan ortiq – plus 15
3	Agar to'langan QQS summasi sohaning o'rtacha ko'rsatkichidan 1,1 baravar yuqori bo'lsa yoki eksport daromadlari umumiy daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa (QQS to'lovchilari uchun – oyiga BHMning kamida 10 baravari miqdorida)	plus 10
4	Agar aylanmadan to'langan soliq summasi soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan 1,1 baravar yuqori bo'lsa yoki eksport daromadlari umumiy daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa (QQS to'lovchilari uchun – oyiga BHMning kamida 10 baravari miqdorida, aylanmadan soliq to'lovchilar uchun oyiga BHMning kamida 1 baravari miqdorida)	plus 10

Tadbirkorlik barqarorlik reytingini joriy qilishdan maqsad – respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarda soliq madaniyatini shakllantirish, ishonchli tadbirkorlarni aniqlash, soliqqa va tashqi iqtisodiy faoliyatga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, qonunga amal qilayotgan tadbirkorlarni qo'shimcha rag'batlantirish hamda tadbirkorlarni huquqiy va iqtisodiy savodxonligini oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari, reyting tadbirkorlarga o'z hamkorlari to'g'risida ishonchli ma'lumot beruvchi himoya tizimiga aylanadi. Ya'ni, shubhali shartnomalar va insofsiz raqobatga chek qo'yilib, "yashirin" iqtisodiyot qisqaradi.

Tadbirkorlarning barqarorlik reytingini o'rganish va baholash ularning iqtisodiyot va biznes muhitini rivojlantirishdagi rolini tushunish uchun muhimdir. Bunday baholash natijalari o'zgarishlar va qiyinchiliklar sharoitida barqaror rivojlanishga qodir bo'lgan muvaffaqiyatli

<sup>68</sup> Muallif ishlanmasi

tadbirkorlarni aniqlashga yordam beradi, shuningdek, turli sanoat va mintaqalarda barqarorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarga e'tiborni qaratadi.

Aniq natijalarni taqdim etish uchun tadbirkorning moliyaviy holati, uning boshqaruv ko'nikmalari, innovatsion salohiyati, tarmoq aloqalari, bozor o'zgarishlariga moslashish va boshqalar kabi turli omillarni hisobga olish kerak. Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi potentsial investorlar va hamkorlar uchun ham, tadbirkorlarning o'zлari uchun ham foydali bo'lishi mumkin, bu ularga kuchli va zaif tomonlarini yaxshiroq tushunish va yaxshilashga yordam beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, biznesning moliyaviy, operatsion va strategik ishonchliligini baholash vositasi sifatida tadbirkorlarning barqarorligi reytingi ahamiyatlidir. Ushbu reyting investorlarga, kreditorlarga va boshqa manfaatdor tomonlarga tadbirkorlar va ularning kompaniyalari bilan o'zaro aloqalar to'g'risida ongli ravishda qaror qabul qilishga imkon beradi. Tadbirkorlar ushbu reytingdan o'zlarining biznes amaliyotlarini yaxshilash, investitsiyalar va hamkorlikni jalb qilish uchun foydalanishlari mumkin.

Reytingni tuzish moliyaviy barqarorlik, biznesni diversifikatsiya qilish, xatarlarni samarali boshqarish, innovatsiya va moslashuvchanlik, obro 'va ishonch, ijtimoiy mas'uliyat va menejment kabi bir qator mezonlarga asoslanadi. Ushbu mezonlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan tadbirkorlarni potentsial investorlar va sheriklar uchun yanada ishonchli va jozibali deb hisoblash mumkin.

Tadbirkorlarning barqarorlik reytingidan olingen topilmalar turli manfaatdor tomonlar, jumladan investorlar, kreditorlar, hamkorlar va hatto tadbirkorlarning o'zлari uchun mazmunli bo'lishi mumkin. Ushbu reyting biznesning moliyaviy va operatsion barqarorligini, uning iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini, xatarlarni samarali boshqarish va boshqa muhim jihatlarni baholashga yordam beradi.

Shunga qaramay, shuni yodda tutish kerakki, tadbirkorlarning barqarorlik reytingi shunchaki baholash vositasidir va biznes bilan o'zaro munosabatlar to'g'risida qaror har doim mavjud bo'lgan barcha omillar va sharoitlarni har tomonlama tahlil qilish asosida qabul qilinishi kerak. Shuningdek, reytinglar vaqt o'tishi bilan biznes muhitidagi o'zgarishlar va tadbirkorning strategiyasiga qarab o'zgarishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Umuman olganda, tadbirkorlarning barqarorlik reytingi barqaror va gullab-yashnayotgan biznes muhitini rivojlantirish uchun asosli qarorlar qabul qilish va biznes bilan o'zaro aloqada xavflarni minimallashtirish uchun foydali vositadir.

### **Adabiyotlar/Jumeepamypa/Reference:**

Jeffry A. Timmons (1989) *The Entrepreneurial Mind*. Brick House Publishing Company, ISBN 0931790840, 9780931790843, pages 187

Kraus, S., Clauss, T., Breier, M., Gast, J., Zardini, A., Tiberius, V., & Brem, A. (2019). "Entrepreneurial orientation and sustainable development: A configuration approach." *Journal of Business Research*, 99, 314-324.

Kuckertz, A., & Wagner, M. (2010). "A Systematic Literature Review of Sustainable Entrepreneurship Metrics." *Journal of Business Venturing Insights*, 14, 1-14.

Mirziyoyev Sh. (2024) 2024 yil 5 yanvar kuni Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish bo'yicha taqdimot bilan tanishtirilishdagi nutqidan

O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri), 2019-yil 30-dekabr. – 402 bet.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son qarori

Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 39-son qarori

Robert M. Solow (1988) "Growth Theory: An Exposition". Oxford University Press, ISBN 0195056094, 9780195056099109 page

Toivonen, M., Korhonen, J., & Jussila, J. J. (2019). "Sustainability and entrepreneurship: A bibliometric review and research agenda." *Sustainability*, 11(9), 2681.

William J. Baumol, (1996) "Entrepreneurship: Productive, unproductive, and destructive", *Journal of Business Venturing*, Volume 11, Issue 1, Pages 3-22, ISSN 0883-9026,[https://doi.org/10.1016/0883-9026\(94\)00014-X](https://doi.org/10.1016/0883-9026(94)00014-X).

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/088390269400014X>